



UDK:323/321:1(09) (584.4)

*Muxiddin ABDURAXMONOV,*  
*O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti v.b., PhD*  
*E-mail: Muxiddin1967@gmail.com*

*O'zMU professori B.To'ychiyev taqrizi asosida*

## XITOIY VA MARKAZIY OSIYO O'RTASIDAGI SIVILIZATSION ALOQALARNING IJTIMOYIY-FALSAFIY TAHLILI

Аннотация

Maqolada Xitoyning O'zbekiston Respublikasi va umuman Markaziy Osiyo mintaqasi o'rtasidagi tarixiy aloqalar ijtimoiy falsafa nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Buyuk Ipak yo'li sivilizatsiyalar dialogi, g'oyalar transformatsiyasi, ijtimoiy-iqtisodiy, gumanitar-madaniy munosabatlarning shakllanish makoni sifatida talqin etiladi. Tomonlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik jarayonlarining ijtimoiy-falsafiy ahamiyati geofalsafiy yondashuvlar vositasida yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** O'zbekiston, ijtimoiy falsafa, sivilizatsiyalar dialogi, Buyuk Ipak yo'li, Xitoy, Markaziy Osiyo, gumanitar-madaniy, iqtisodiy hamkorlik, faoliyat, falsafiy g'oyalar, strategik sheriklik, xavafsizlik va barqarorlik.

## СОЦИО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ ЦИВИЛИЗАЦИОННЫХ ОТНОШЕНИЙ МЕЖДУ КИТАЕМ И ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИЕЙ

Аннотация

В статье анализируются исторические взаимоотношения между Китаем, Республикой Узбекистан и Центральноазиатским регионом в целом, с точки зрения социальной философии. Великий Шелковый путь рассматривается как место диалога цивилизаций, трансформации идей, формирования социально-экономических, гуманитарных и культурных связей. Социально-философское значение процессов взаимодействия сторон подчеркивается с помощью геофилософских подходов.

**Ключевые слова:** Узбекистан, социальная философия, диалог цивилизаций, Великий Шелковый путь, Китай, Центральная Азия, гуманитарно-культурное и экономическое сотрудничество, деятельность, философские идеи, стратегическое партнерство, безопасность и стабильность.

## SOCIO-PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF CIVILIZATIONAL RELATIONS BETWEEN CHINA AND CENTRAL ASIA

Annotation

This article analyzes the historical relations between China, the Republic of Uzbekistan, and the Central Asian region as a whole from a social philosophical perspective. The Great Silk Road is viewed as a site of dialogue between civilizations, the transformation of ideas, and the formation of socio-economic, humanitarian, and cultural ties. The socio-philosophical significance of these interactions is emphasized using geophilosophical approaches.

**Key words:** Uzbekistan, social philosophy, dialogue of civilizations, Great Silk Road, China, Central Asia, humanitarian-cultural, economic cooperation, activity, philosophical ideas, strategic partnership, security and stability

**Kirish.** Zamonaviy falsafiy tadqiqotlarda sivilizatsiyalar o'rtasidagi muloqot muammosi globallashuv jarayonlari bilan bog'liq holda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, Xitoy va Markaziy Osiyo o'rtasidagi tarixiy aloqalarni faqat tarixiy voqelik sifatida emas, balki ijtimoiy-falsafiy tajriba sifatida tahlil qilish zarur. Markaziy Osiyo va Xitoy o'rtasidagi qadimdan shakllangan keng qamrovli aloqalarning timsoli bo'lgan Buyuk Ipak yo'li mintaqalar va xalqlar o'rtasida iqtisodiy, madaniy, ilmiy va falsafiy bilimlarning o'zaro o'zlashtirilish jarayonidir. Ipak yo'li makonida shakllangan ushbu munosabatlar sivilizatsion identifikatsiya, g'oyalar harakati va madaniy transformatsiya jarayonlarini anglash uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Si Szinpin 2016-yilning 20-iyunida O'zbekiston bilan munosabatlarga to'xtalib: "Bundan 2000-yil avval Buyuk Ipak yo'li xalqlarimiz o'rtasida do'stlik aloqalarini o'rnatish, o'zaro hamkorlik qilish va bir-birlarini boyitish kabi ezgu maqsadlarga xizmat qilgan. Xitoyning Sixan sulolasi elchisi Chjan Syan, Tan sulolasi elchisi Syuanszan va Min sulolasi elchisi Chenchen turli davrlarda muayyan missiya bilan O'zbekistonga kelgan yoki uning hududidan o'tgan"-degan edi"[1].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Buyuk Ipak yo'li ko'pincha savdo yo'li sifatida talqin qilinadi, biroq uning falsafiy ahamiyati sivilizatsiyalar o'rtasidagi ma'naviy muloqot bilan bog'liq. Jumladan, L.N.Gumilyovning ta'kidlashicha, Xitoy tarixchilari uchun g'arb xalqlari bilan munosabatlar tashqi siyosat emas, balki sivilizatsion tajriba bo'lgan [2]. Bu holat Ipak yo'lini intersub'ektiv falsafiy makon sifatida talqin qilishga asos beradi. E.V.Rtveladze Markaziy Osiyo sivilizatsiyalar muloqotida passiv vositachi emas, balki faol ijodkor subyekt bo'lganligini, ushbu hududda madaniy va falsafiy g'oyalar qayta ishlanganini ta'kidlaydi [3]. Ijtimoiy falsafa nuqtai nazaridan bu holat jamiyatning tashqi ta'sirga nisbatan ijodiy munosabatini namoyon etadi. Xitoy va Markaziy Osiyo o'rtasidagi madaniy aloqalar qadimiy tarixga ega ekanligini buddizmning mintaqamiz orqali Xitoyga kirib borganligi, Syuan Szanning Markaziy Osiyo shaharlarini chudqr falsafiy mushohada markazlari sifatida tavsiflashi ham tasdiqlaydi. Shundann keyin K.Bekvit ta'kidlaganidek, buddizm Xitoy madaniyatida mahalliy falsafiy an'analar bilan sintezlashgan [5]. Yu.A.Bregel fikriga ko'ra esa Xitoy falsafiy tafakkurida g'arb xalqlari (ya'ni Markaziy Osiyo turklari)

obrazi sivilizatsion o'zlikni anglashga xizmat qilgan [4]. Bu holat ijtimoiy falsafada "boshqa orqali o'zini anglash" tamoyili bilan uyg'undir.

Xitoyning O'zbekiston va umuman Markaziy Osiyo bilan aloqalarini ayrim tadqiqotchilar uning o'z ta'sir doirasini kengaytirishi bilan izohlaydilar: "Xitoy mintaqada o'z ta'sirini mustahkamlash uchun iqtisodiy dastaklar, xususan investitsiyalar, infrastrukturaviy loyihalar va savdo aloqalaridan foydalanadi". Xitoyning mintaqamiz, jumladan O'zbekistonning an'anaviy asosiy hamkori bo'lgan Rossiyadan ko'ra iqtisodiyot va investitsiya kiritish yo'nalishlaridagi ulushining ortishi borasida tadqiqotchilar, xususan V.Paramonovning fikriga ko'ra, Rossiya va Xitoy Markaziy Osiyoda o'z strategik ta'sirini kuchaytirish uchun xavfsizlik, energetika va iqtisodiy sohalarida raqobat qiladi, mintaqada o'z manfaatlarini mustahkamlashga intiladi, lekin ularning yo'nalishlari va faoliyat usullari farq qiladi.

Tadqiqotda sivilizatsion yondashuv, dialog falsafasi, tarixiy-falsafiy tahlil va qiyosiy usul kabi falsafiy metodlar qo'llanildi. Ushbu metodologiya Xitoy - Markaziy Osiyo munosabatlarini ijtimoiy falsafa kategoriyalari orqali ochib berish imkonini beradi.

**Tahlil va natijalar.** Xitoy va O'zbekiston o'rtasidagi gumanitar va ma'naviy-falsafiy aloqalar tarixi qadimi davrlarga borib taqaladi. Xususan, buddizmning Xitoyga kirib kelish jarayoni Markaziy Osiyo orqali amalga oshgani tarixiy manbalarda keltirilgan. Xususan, Syuan Szan o'z safar yozuvlarida mintqa shaharlarini faqat diniy emas, balki falsafiy bilimlar markazlari sifatida tavsiflaydi. K.Bekvitning ta'kidlashicha, buddizm Xitoyga mukammal ta'limot sifatida kirib kelmagan, balki Markaziy Osiyo madaniy muhiti ta'sirida qayta shakllangan [5]. Bu falsafa g'oyalarning tarixiy-madaniy transformatsiyasi qonuniyatini tasdiqlaydi. Xitoy falsafiy tafakkurida g'arbiy xalqlar obrazi ("xu") faqat etnik tushuncha emas, balki madaniy chegaralarni anglash vositasi bo'lib xizmat qilgan. Yu.A.Bregelning ta'kidlashicha, "G'arb", ya'ni Markaziy Osiyo obrazi Xitoy sivilizatsiyasida o'zlikni anglash jarayonini tezlashtirgan, ijtimoiy falsafada "Boshqa orqali o'zini anglash" tamoyili bilan izohlanadi [4].

Mustaqillik yillarida ham Xitoy va O'zbekiston o'rtasida ta'lim, fan va texnologiyalar borasida hamkorlik rivojlanmoqda. Hozirda O'zbekiston Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti bilan Shanxay universiteti, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti hamda Pekin xorijiy tillar va madaniyat universiteti o'rtasida aloqalar yo'lga qo'yilgan. Yangi O'zbekistonda 2022-yildan boshlab o'zaro munosabatlar strategik sheriklik darajasiga ko'tarildi. Hozirga qadar tomonlar hamkorligining huquqiy asosini 285 ta, jumladan, 100 dan ortiq davlatlararo va boshqa hukumatlararo hujjatlar tashkil etadi.

Bugungi kunda Xitoy strategiyasida Markaziy Osiyo bir qator muhim unsurlardan iborat hudud sifatida ko'riladi. Jumladan, milliy xavfsizlik va manfaatlarini ta'minlashga hamkorlik ko'rsatadigan va buyuk davlat sifatida shakllanishda strategik muhim ahamiyatga ega hudud, eksportbop istiqbolli bozor va xalqaro transport koridorlariga muqobil chiqish yo'li, Xitoyning energozaxirlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondiruvchi manba hamda muhim geosiyosiy tayanch va milliy manfaatlarini mavjud hudud.

AQSh va G'arb tahdidi fonida Rossiya va Xitoyning mintaqada o'zaro manfaatlarini himoyasi doirasida yakdil tashqi siyosat olib borishiga qaramasdan, Markaziy Osiyoda o'z ta'sirini kuchaytirish, uning energozaxiralarini eksport qilish yo'nalishlari bo'yicha bu ikki davlat o'rtasida yashirini raqobat bo'lib, kelajakda amerika tahdidining pasayishi ehtimoli fonida oshkora raqobatga aylanishi mumkin.

Hozirda Xitoy mintaqaga nisbatan ko'proq iqtisodiy ta'sir choralari qo'llamoqda va yaqin istiqbolda ham muhim

geosiyosiy mintaqalardan biri sifatida uning e'tiborida bo'ladi. Shu bois Markaziy Osiyoda ta'sir kuchiga ega bo'lgan yangi aktorlar paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida vaziyatni jiddiy kuzatib boradi. Yaqin va uzoq kelajakda O'zbekiston-Xitoy strategik sheriklik munosabatlari siyosiy, savdo-iqtisodiy, moliyaviy, madaniy, qishloq xo'jaligi, qurilish, ilmfan va ta'lim sohalarida jadal va o'zaro manfaatli asosda rivojlanib boradi.

O'zbekiston va Xitoy o'rtasida 2012-yil 6-iyunda strategik sheriklik to'g'risida, 2016-yil 22-iyunda keng qamrovli strategik sheriklik to'g'risida, 2022-yil 15-sentyabrda yangi davrda keng qamrovli strategik sheriklik to'g'risida shartnomalar imzolangan. Hamkorlikning huquqiy asoslarini 283 ta shartnoma va bitimlar, jumladan 113 ta davlatlararo va hukumatlararo xalqaro shartnomalar, 82 ta idoralararo va 88 ta boshqa turdagi hujjatlar tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2023-yil 18-19-may kunlari Sian shahrida bo'lib o'tgan "Markaziy Osiyo - Xitoy" ilk sammitida hamda 17-18-oktyabrda Pekinda o'tgan "Bir kamar, bir yo'l" 3-xalqaro forumida qatnashishi mintaqalar o'rtasida o'zaro hamkorlikning yangi istiqbollari ochib berdi [9].

Mavzuni o'rganish jarayonida olingan natijalar Xitoy-Markaziy Osiyo munosabatlari sivilizatsiyalar dialogi uchun universal falsafiy model ekanini ko'rsatadi. Ushbu tajriba zamonaviy interkulturalizm nazariyalarini boyitadi.

O'zbekiston Respublikasi Rossiya va Xitoy o'rtasida pragmatik siyosat yuritib, har ikki tomon bilan hamkorlikni saqlashga intiladi, chunki Rossiyaning mintaqada asosan xavfsizlik va harbiy-siyosiy ta'sir orqali ishtirok etishi, Xitoyning iqtisodiy investitsiyalar, infratuzilma loyihalari va savdo orqali o'z mavqegini mustahkamlashga harakat qilishi, O'zbekistonning ular o'rtasida o'z manfaatlarini himoya qilish uchun manyovr qilishga majbur qiladi. Ushbu hamkorlik tashqi raqobat fonida shakllanib, uning chuqurlashuvi ko'p jihatdan O'zbekiston va mintqa davlatlarining mustaqil siyosiy irodasi va umumiy manfaatlarini anglash darajasiga bog'liq. Bu mintaqada vaziyatning barqarorligi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish kafolatlaridandir.

**Xulosa va takliflar.** Maqolada keltirilgan tadqiqotchilar materiallari o'rganish va tahlil qilish natijalari quyidagi xulosalarni chiqarishga sabab bo'ldi;

Xitoy va Markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatlari, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi o'rtasidagi o'zaro aloqalar ijtimoiy-falsafiy jarayondir;

Markaziy Osiyo mintaqasi qadimgi davrlardan boshlab g'oyalar transformatsiyasi makoni bo'lgan; tomonlarning ushbu hamkorlik tajribasi zamonaviy falsafa uchun muhim nazariy ahamiyatga ega;

O'zbekiston tashqi siyosiy faoliyatida Xitoy bilan hamkorlik munosabatlarini sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarib, o'zaro manfaatli va ko'pqirrali aloqalarni rivojlantirishga alohida e'tibor bermoqda;

tomonlarning o'zaro hamkorligi mintaqamizda xavfsizlik tizimini shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi;

O'zbekiston va Xitoy uzoq tarixga, noyob madaniyat hamda ulkan aqliy salohiyatga ega davlatlar sifatida gumanitar hamkorlik, o'zaro oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari o'rtasida hamkorlik olib bermoqda;

qadimgi Buyuk ipak yo'li marshrutlarida avto va temir yo'llarni modernizatsiyalash va yangilarini qurish Markaziy Osiyo va uning markazida joylashgan O'zbekistonni muhim strategik ahamiyatini yanada kuchaytiradi.

Shu bilan birga, O'zbekistonning mintaqaviy hamkorlikni hamda Xitoy bilan o'zaro aloqalarni kengaytirishga qaratilgan tashqi siyosati jarayonida milliy manfaatlarini hisobga olish asosiy o'rin tutadi;

Buyuk Ipak yo‘li doirasidagi qator loyihalarni amalga oshirishda boshqa yetakchi kuchlarning ham mintaqadagi manfaatlarini hisobga olgan holda ko‘pqutbli tashqi siyosat tamoyillariga og‘ishmay amal qilish;

xalqaro loyihalarni amalga oshirish jarayonidan gumanitar-madaniy va ijtimoiy-falsafiy sohalarni rivojlantirishda, o‘z iqtisodiy salohiyatini oshirishda, zamonaviy transport-logistika tizimini shakllantirishda samarali foydalanish.

#### ADABIYOTLAR

1. Си Цзинпин. Открыт новую яркую страницу китайско-узбекской дружбы.
2. Народное слово. 21 июня 2026 года, №120 (6525)
3. Гумилёв Л. Н. Древние тюрки. – М.: Айрис-Пресс, 2002. - 448 с.
4. Ртвеладзе Э. В. Великий Шёлковый пут. – Т: Ўзбекистон, 1999. – 232 с.
5. Брегел Ю. А. История Центральной Азии. - СПб.: Евразия, 2003. - 356 с.
6. Beckwith C. I. Empires of the Silk Road. - Princeton: Princeton University Press, 2009. - 472 p.
7. В.В. Парамонов. Взаимоотношения государств Центральной Азии с Европой и Китаем: от теории к практике. – Ташкент, 2023. «Zilol buloq» – 280 с.
8. Парамонов В. В., Взаимоотношения государств Центральной Азии с Россией и Китаем, М., ИМЭМО РАН, 2023, с. 119;
9. Сюан Цзан. Записки о западных странах / пер. с кит. - М.: Восточная литература, 1998. - С.78.
10. Naq tomonlama strategik sheriklikni kengaytirishning ustuvor yo‘nalishlari belgilab olindi.Xalq so‘zi. 2023-yil 19-may 102 (8445).